

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



“Tasdiqlayman”

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining birinchi o'rinbosari

S. Radjabov

«30» dekabr 2025-yil

MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV REJASI

Malaka oshirish yo'nalishi: **Rus tili**

Tinglovchilar kontingenti: **Akademik litseylarning rus tili fani o'qituvchilari**

Malaka oshirish kursi muddati: **maxsus reja grafik asosida (48 akademik soat)**

№	Malaka oshirish shakllari va o'quv modullari	Umumiy soat	Jami auditoriya soati	jumladan		Masofadan o'qitish	Mustaqil ta'lim	Jami ajratilgan kreditlar
				nazariy	amaliy			
I.	TAYANCH MODULLARNI O'ZLASHTIRISH ORQALI MALAKA OSHIRISH	24	22	10	12		2	4
1.1.	Ta'limdagi islohotlar va sohaga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar	6	6	4	2			4
1.2.	Ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish	6	6	2	4			
1.3.	Rus tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va metodikalar	10	10	4	6			
1.4.	Yakuniy nazorat	2					2	
II.	ISHDAN AJRALMAGAN HOLDA MALAKA OSHIRISH	24				24		4
2.1.	Tanlov modullarini o'zlashtirish orqali mustaqil tajriba ortirish	24				24		4
2.2.	Mustaqil malaka oshirish shaklini kasbiy faoliyat bilan bog'liq turlarini bajarish							
Jami:		48	22	10	12	24	2	8

Izoh:

1. Bir kredit 6 akademik soatni tashkil qiladi.
2. O'quv rejasiga qo'shimcha kiritiladigan modullar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.
3. Mazkur o'quv reja asosida malaka oshirish kursi yo'nalishidan kelib chiqib ishchi o'quv reja tuziladi va tayanch oliy ta'lim muassasasining Kengashida tasdiqlanadi.
4. Mashg'ulotlar muammoli ma'ruza, seminar-trening, davra suhbat, munozara, kichik guruhlarda ishlash hamda boshqa interfaol metodlardan foydalangan holda olib boriladi.
5. Ishdan ajralmagan holda malaka oshirishda tinglovchilar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajargan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kamida 4 kredit yig'ishlari talab qilinadi.
6. Tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali, tanlov modullari tinglovchilar ehtiyojidan kelib chiqib, ishdan ajralmagan holda masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali tinglovchining malaka oshirishi rejalashtirilgan oyda o'zlashtiriladi.
7. Akademik litseylar pedagog xodimlari tarkibidagi uch yoshga to'lmagan bolasi bo'lgan ayollar, pensiya yoshidagilar hamda nogironligi bo'lgan shaxslar tayanch modullarini ham ishdan ajralmagan holda masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali mustaqil ravishda o'zlashtiriladi.
8. Tayanch va tanlov modullarini masofadan o'qitish ta'lim usullari orqali tashkil etishda, modullar bo'yicha yaratilgan elektron kontentlarga qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari o'quv yuklamasi hajmini hisoblashning vaqt me'yorlari bo'yicha soatlar ajratiladi.
9. Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida o'tkaziladi.

Kadrlar malakasini oshirish, ekologik diplomatiya va akademik litseylar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi



F.T. Esanboboyev

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori



U.Sh. Begimkulov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori



R.I. Xalmuradov

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi direktori



A.I. Babayarov

